

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021 - yil 1 - iyul holatiga 868,3 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 7,3 ming kishiga yoki 1,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 369,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 498,4 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:  
2021 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **7,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **10,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,0 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2021 yil yanvar-iyun oylarida)

Tirik tug'ilganlar  
10,1 ming bola

Tabiy  
o'sish  
+8,2  
ming kishi

Aholining  
umumiyl  
o'sishi  
7,3  
ming kishi

Ko'chib kelganlar  
4,5 ming kishi

Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
-0,8  
ming kishi

Vafot etganlar  
1,9 ming kishi

Ko'chib ketganlar  
5,3 ming kishi

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi**  
 (2020-2021 - yillar 1– iyul xolatiga holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

|                          | 2020 - yil   | 2021 - yil*  | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--------------------------|--------------|--------------|--|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>853,3</b> | <b>868,3</b> | <b>101,8</b>                               |
| Guliston sh.             | 91,0         | 92,7         | 101,9                                      |
| Shirin sh.               | 18,8         | 18,9         | 100,5                                      |
| Yangiyer sh.             | 43,8         | 44,7         | 102,1                                      |
| tumanlar:                |              |              |  |
| Oqoltin                  | 52,4         | 53,4         | 101,9                                      |
| Boyovut                  | 130,5        | 132,5        | 101,5                                      |
| Guliston                 | 73,2         | 75,0         | 102,5                                      |
| Sayxunobod               | 77,7         | 79,1         | 101,8                                      |
| Mirzaobod                | 74,1         | 75,9         | 102,4                                      |
| Sardoba                  | 66,5         | 67,4         | 101,4                                      |
| Sirdaryo                 | 129,1        | 130,9        | 101,4                                      |
| Xovos                    | 96,2         | 97,8         | 101,7                                      |


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021 - yil 1 - iyul holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 132,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 130,4 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,9 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 44,7 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020 - yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,4 % ni, Guliston tumanida 2,5 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi** (2021- yil 1– iyul holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)



### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi** (2021- yil 1– iyul holatiga, foizda , dastlabki ma'lumot)




## Demografik holat

### **Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2021- yil 1– iyul holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)**

|                          | erkak        | ayol         |
|--------------------------|--------------|--------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>436,0</b> | <b>432,3</b> |
| Guliston sh.             | 46,2         | 46,5         |
| Shirin sh.               | 9,3          | 9,6          |
| Yangiyer sh.             | 22,2         | 22,5         |
| <i>tumanlar:</i>         |              |              |
| Oqoltin                  | 26,8         | 26,6         |
| Boyovut                  | 67,2         | 65,3         |
| Guliston                 | 37,0         | 38,0         |
| Sayxunobod               | 39,5         | 39,6         |
| Mirzaobod                | 39,5         | 36,4         |
| Sardoba                  | 34,2         | 33,2         |
| Sirdaryo                 | 65,2         | 65,7         |
| Xovos                    | 48,9         | 48,9         |

### **Hududlar kesimida aholi zichligi (2021- yil 1– iyul holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)**



## Demografik holat


**Tug‘ilish.** 2021 - yilning yanvar-iyun oylarida 10,1 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega ko‘paygan (2020 - yilning yanvar-iyun oylarida 22,5 promille bo‘lgan).

Tug‘ilish koeffitsiyenti 2020 - yilning mos davriga nisbatan Oqoltin tumanida (19,6 promilledan 24,6 promillega), Xovos tumanida (20,5 promilledan 22,8 promillega), Yangiyer shahrida (22,1 promilledan 24,1 promillega) sezilarli o‘sgan bo‘lib, aksincha sezilarli kamayish Sayxunobod tumanida (23,0 promilledan 22,8 promillega), Sirdaryo tumanida (21,5 promilledan 21,8 promillega) qayd etildi.

### Ma’lumot uchun

Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar- iyun)



**Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi  
(yanvar– iyun)**


|                          | <b>2020 - y.</b> | <b>2021 - y.</b> | <b>O'sish sur'ati<br/>% da</b> |
|--------------------------|------------------|------------------|--------------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>9538</b>      | <b>10116</b>     | <b>106,1</b>                   |
| <b>Guliston sh.</b>      | 1395             | 1403             | 100,6                          |
| <b>Shirin sh.</b>        | 159              | 168              | 105,7                          |
| <b>Yangiyer sh.</b>      | 478              | 530              | 110,9                          |
| <b>tumanlar:</b>         |                  |                  |                                |
| <b>Oqoltin</b>           | 507              | 648              | 127,8                          |
| <b>Boyovut</b>           | 1372             | 1433             | 104,4                          |
| <b>Guliston</b>          | 809              | 855              | 105,7                          |
| <b>Sayxunobod</b>        | 886              | 889              | 100,3                          |
| <b>Mirzaobod</b>         | 809              | 855              | 105,7                          |
| <b>Sardoba</b>           | 745              | 782              | 105,0                          |
| <b>Sirdaryo</b>          | 1372             | 1413             | 103,0                          |
| <b>Xovos</b>             | 994              | 1101             | 110,8                          |

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2021 - yilning yanvar - iyun oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2020 - yilning mos davriga nisbatan tenglashdi. (2020 - yilning yanvar - iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2020 - yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Shirin shahrida (4,2 promilledan 5,4 promillega), Yangiyer shahrida (4,3 promilledan 5,4 promillega), Sayxunobod (4,1 promilledan 4,8 promillega) tumanida kuzatilgan bo'lib, aksincha Mirzobod tumanida (3,7 promilledan 3,2 promillega) kamayish holati kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** 1,1 ming kishi  
**Ayollar:** 0,8 ming kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar - iyun)



**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi  
(yanvar– iyun)**


|                          | <b>2020 y.</b> | <b>2021 y.</b> | <b>O'sish sur'ati<br/>% da</b> |
|--------------------------|----------------|----------------|--------------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>1763</b>    | <b>1916</b>    | <b>108,7</b>                   |
| Guliston sh.             | 224            | 243            | 108,5                          |
| Shirin sh.               | 39             | 51             | 130,8                          |
| Yangiyer sh.             | 94             | 119            | 126,6                          |
| <i>tumanlar:</i>         |                |                |                                |
| Oqoltin                  | 96             | 106            | 110,4                          |
| Boyovut                  | 251            | 285            | 113,5                          |
| Guliston                 | 162            | 167            | 103,1                          |
| Sayxunobod               | 157            | 186            | 118,5                          |
| Mirzaobod                | 134            | 121            | 90,3                           |
| Sardoba                  | 126            | 130            | 103,2                          |
| Sirdaryo                 | 313            | 321            | 102,6                          |
| Xovos                    | 167            | 187            | 112,0                          |

## Demografik holat

2021 - yilning yanvar – iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,7 % i o'simtalardan, 6,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 9,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 103 nafarni tashkil etib, ularning 62,1 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,4 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,7 % Tug'ma anomaliyalar kasalliklaridan, 1,0 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,8 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikoh.** 2021 - yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan Xovos tumanida (247,9 %), Sayxunobod tumanida (183,3 %), Oqoltin tumanida (158,7 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish kuzatilmadi.

### **Nikohdan ajralishlar.**

2021 - yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020 - yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xovos (200,0 %), Sayxunobod (166,0 %) va Oqoltin (182,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar - iyun)**

|                          | Nikoh tuzganlar | Nikoh koeffitsienti |
|--------------------------|-----------------|---------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>3041</b>     | <b>7,1</b>          |
| Guliston sh.             | 524             | 11,5                |
| Shirin sh.               | 47              | 5,0                 |
| Yangiyer sh.             | 191             | 8,7                 |
| <i>tumanlar:</i>         |                 |                     |
| Oqoltin                  | 200             | 7,6                 |
| Boyovut                  | 451             | 6,9                 |
| Guliston                 | 225             | 6,1                 |
| Sayxunobod               | 253             | 6,5                 |
| Mirzaobod                | 201             | 5,4                 |
| Sardoba                  | 196             | 5,9                 |
| Sirdaryo                 | 453             | 7,0                 |
| Xovos                    | 300             | 6,2                 |

## Demografik holat

### **Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021 - yil yanvar– iyun)**

|                          | <b>Ajrim</b> | <b>Ajrim koeffitsienti</b> |
|--------------------------|--------------|----------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>662</b>   | <b>1,5</b>                 |
| Guliston sh.             | 103          | 2,3                        |
| Shirin sh.               | 12           | 1,3                        |
| Yangiyer sh.             | 49           | 2,2                        |
| <i>tumanlar:</i>         |              |                            |
| Oqoltin                  | 42           | 1,3                        |
| Boyovut                  | 95           | 1,5                        |
| Guliston                 | 59           | 1,6                        |
| Sayxunobod               | 40           | 1,0                        |
| Mirzaobod                | 47           | 1,3                        |
| Sardoba                  | 32           | 1,0                        |
| Sirdaryo                 | 107          | 1,7                        |
| Xovos                    | 76           | 1,6                        |

### **Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)**

|                          | <b>Tuzilgan nikohlar</b> |                  |                            | <b>Nikohdan ajralishlar</b> |                  |                            |
|--------------------------|--------------------------|------------------|----------------------------|-----------------------------|------------------|----------------------------|
|                          | <b>2020 - y.</b>         | <b>2021 - y.</b> | <b>O'sish sur'ati % da</b> | <b>2020 - y.</b>            | <b>2021 - y.</b> | <b>O'sish sur'ati % da</b> |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>2156</b>              | <b>3041</b>      | 141,0                      | 525                         | 662              | 126,1                      |
| Guliston sh.             | 438                      | 524              | 119,6                      | 93                          | 103              | 110,8                      |
| Shirin sh.               | 30                       | 47               | 156,7                      | 21                          | 12               | 57,1                       |
| Yangiyer sh.             | 138                      | 191              | 138,4                      | 34                          | 49               | 144,1                      |
| <i>tumanlar:</i>         |                          |                  |                            |                             |                  |                            |
| Oqoltin                  | 126                      | 200              | 158,7                      | 23                          | 42               | 182,6                      |
| Boyovut                  | 314                      | 451              | 143,6                      | 90                          | 95               | 105,6                      |
| Guliston                 | 138                      | 253              | 183,3                      | 24                          | 40               | 166,7                      |
| Sayxunobod               | 156                      | 225              | 144,2                      | 47                          | 59               | 125,5                      |
| Mirzaobod                | 153                      | 196              | 128,1                      | 29                          | 32               | 110,3                      |
| Sardoba                  | 139                      | 201              | 144,6                      | 43                          | 47               | 109,3                      |
| Sirdaryo                 | 303                      | 453              | 149,5                      | 83                          | 107              | 128,9                      |
| Xovos                    | 121                      | 300              | 247,9                      | 38                          | 76               | 200,0                      |

**Migratsiya.** 2021- yil yanvar - iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2020 - yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

|                               | 2020 yil<br>yanvar-iyun | 2021 yil<br>yanvar-iyun |
|-------------------------------|-------------------------|-------------------------|
| <b>Ko'chib kelganlar</b>      | 3,2                     | 4,5                     |
| <b>Ko'chib ketganlar</b>      | 4,0                     | 5,3                     |
| <b>Migratsiya<br/>saldosi</b> | -0,8                    | -0,8                    |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,3 ming kishi), Sirdaryo tumanida (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.

